

DIN VA IJTIMOYILASHUVNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MOHIYATI

Sotiboldiyev Asqarali Shuxrat o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistri

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Maqolada aynan shu mavzu O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlari misolida tahlil qilinadi.

Tayanch tushunchalar: *Din, axloq, qadriyaqt, yoshlar, ijtimoiylashuv, yoshlarning dunyo qarashi.*

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF RELIGION AND SOCIALIZATION

Sotiboldiyev Asqarali Shuxrat o'g'li

Master's student of the Mirzo Ulug'bek National University of Uzbekistan

It is known from the historical path of development of any state that the rapid development of the country, the achievement of certain successes, the well-being of the people are closely related to the level of attention paid to education and the future of youth in this state. It is this topic that will be analyzed in the article on the example of the most priority areas of state policy on youth issues in Uzbekistan.

Basic concepts: *religion, morality, value, time, youth, socialization, worldview of youth.*

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»¹⁹ Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama etuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi angelaydi.

Yoshlar deb – o'z tengdoshlari yoshlariga nisbatan umumiyliги bilan ajralib turuvchi, o'ziga xos ijtimoiy psixologik jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan, ijtimoiy demografik

¹⁹ <https://lex.uz/docs/3026246>

guruxga aytiladi. Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoni, ijtimoiy jarayonni aktiv harakatlarini o'rganish orqali ijtimoiy demografik guruhlar bilan muloqot va munosabatga kirishish jarayonida sodir bo'ladi²⁰

Har bir davr ijtimoiy hayot jabhalariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Bugungi davr butun dunyoga axborotning misli ko'rilmagan tarzda yangilanishi, qadriyatlarning qayta baholanishi bilan bog'liq bo'lgan global jarayonlarni taqdim etmoqda. Hayotimizning barcha sohasida jadallashuvni, boshqacha qilib aytganda esa globallashuvni ko'rishimiz odatiy hol bo'lib qoldi. Global dunyo yangicha qadriyatlar, hayotning barcha jabhalariga nisbatan mutlaqo o'zgacha yondashuvlarni talab qilishi bilan xarakterlanmoqda.

Qadriyatlar insonning dunyoqarashida, ularning kelib chiqishida asosiy hisoblanadi madaniy naqshlarda, an'anaviy va diniy me'yorlarda kuzatilgan, shaxslar hayotini tartibga solish. Qadriyat yo'nalishlari shaxs tuzilishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u ma'lum bir rivojlanish yo'lini bosib o'tadi, ijtimoiy o'zaro ta'sir tajribasini oladi. "Diniy ijtimoiylashuv" – bu dindor bo'lish jarayonida diniy qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish shaxs yoki bir guruh odamlarning turmush tarzi, ularning diniy qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyat bilan munosabatlarning o'zgarishiga olib keladigan xatti-harakatlar normalari diniy qonunlar asosida o'zida namayon etishdir. "Dindorlik" tushunchasi tegishli narsalar to'plamidir vakillik, g'oyalar, e'tiqodlar, diniy harakatlarni amalga oshirish uchun ehtiyojlarni bajarish jarayonidir. Diniy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, madaniyatning chuqur konstruksiyalari bilan bog'liq bo'lib, milliy va millatlararo mavjudlikning tarixiy tajribasini o'z ichiga oladi va hayotiy munosabatlarni, xulq-atvor shakllarini, shaxs bilan munosabatlarning tabiatini belgilaydi.

Yoshlarning diniy qadriyatlari alohida ijtimoiy xususiyat sifatida ajralib turadi. Bir tomondan, yoshlar diniy marosimlarni bajarish, diniy muassasalarga (ibodatxona, masjid va boshqalar) tashrif buyurishi, ishtirok etish, diniy bayramlarda diniy ramz va ashyolardan foydalanishi, uy-ro'zg'or yuritishda, kundalik xayotida va kiyim-kechaklari orqali o'z dindorligini tasdiqlaydi.

Boshqa tomondan, aksariyat yoshlarning dindorligi diniy marosimlarni rasmiy ravishda bajarish va diniy hayotdagi faollikning pastligi bilan uyg'unlashishini kuzatish mumkin.

Jamiyatning barqarorligini ta'minlashda, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashda ijtimoiy tartibni ta'minlash mexanizmlaridan bo'lgan axloq va din kabi ijtimoiy institutlarning ahamiyati g'oyat beqiyosdir. Ijtimoiy ongning turli shakllari bo'lgan axloq va din o'rtasidagi o'zaro munosabat bir necha ming yilliklar oldin vujudga kelgan bo'lsada, bugungi postmodern dunyoda ham o'zgacha mohiyat kasb etib bormoqda. Din va axloqning mazmun-mohiyati falsafiy yondashuv bilan ham tahlil qilingan. Ushbu ikki ijtimoiy ongning ko'rinishini o'zaro aloqador jihatlariga to'xtalishdan oldin, bu ikki tushunchaning mohiyatiga e'tibor qaratib o'tsak.

Avvalo, din tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Barchamizga ma'lumki, din (lotin tilidagi "religio" so'zi bilan ma'nodosh bo'lib, arab tilidan tarjima qilinganda "e'tiqod", "ishonch", "itoat" degan ma'nolarni anglatadi) insonning ruhiy-ma'naviy olami bilan bog'liq tushuncha

²⁰ "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021yil 17avgust, №165(421)

bo'lib, uning atrof-muhitga, olamning yaratilishiga, hayotning asl mazmuniga nisbatan hissiy kechinmalari, ma'lum bir hayot tarzi, ijtimoiy ongning o'ziga xos shaklini ifodalaydi. Ushbu tushunchaga turlicha nuqtai nazardan ta'rif berish mumkin:

-din insonni qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yulini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy borliqqa ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, talimotdir²¹;

-din — xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli²².

-din — 1) ijtimoiy-ma'naviy hayot hodisasi, ilohiy kuchlarga ishonch-e'tiqod asosida shakllangan g'oya va qarashlar tizimi; 2) borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi oliy mavjudot, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat,

tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui²³.

-din – dunyoqarash va insonlar o'rtasidagi munosabat shakli, shuningdek, Xudo yoki turli ilohlar, ilohiy borliqning mavjudligiga asoslangan turmush tarzi va harakatlar majmuasi (kulti)ni ham ifodalaydi²⁴.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, din turli fanlar, xususan, dinshunoslik, falsafa, etika, manaviyatshunoslik, psixologiya fanlarida fanning xususiyat qonuniyatlaridan, tadqiqot predmetidan kelib chiqqan holda turlicha talqin etiladi.

Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir davrlarida din insoniyatning kundalik turmush tarzida to'liq hukmron mavqega ega bo'lgan. Insonlar bajaradigan kundalik yumushlardan tortib, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan katta tadbirlargacha din va uning asosida shakllangan qoidalar asosida amalga oshirilgan, soddaroq qilib aytganda esa din insoniyatning to'liq faoliyatini nazorat qilgan. Endi “axloq” tushunchasining mazmun-mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak. Axloq arabcha xulq so'zining ko'pligi – kishilar orasida munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tartib, qoidalari yig'indisi. Kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning muayyan ijtimoiy-tashkiliy tuzilmalar faoliyatiga asoslangan (huquqiy, diniy) shakllaridan farqli ravishda, axloq kishilar xulq-atvorlari, muloqotlari, munosabatlarining yozilmagan, lekin jamiyat tomonidan qabul qilingan hamda qo'llab-quvvatlanadigan “oltin qoidalar”ni ifodalaydi²⁵. Axloq jamiyat tomonidan ijtimoiy hayotni tartibga solish jarayonida qabul qilingan bo'lib, uning normalari xatti-harakatlarni “yaxshi” va “yomon”, “to'g'ri” va “noto'g'ri”, “ezgu” va “yovuz”ga ajratish me'yorlari sifatida ham talqin etiladi²⁶.

²¹ Dinshunoslik (darslik) –T., “Mehnat”, 2004., 11 bet

²² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. D harfi. T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001 yil. 271 bet.

²³ Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati – T.: “O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2009. 173 bet

²⁴ Большой энциклопедический словарь / 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1997. Ст. 1009

²⁵ Falsafa: ensiklopedik lug'at – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2010. 35 bet.

²⁶ Новый энциклопедический словарь, М.: Большая Российская Энциклопедия, 2005.

Oddiy urf-odatlardan farqli ravishda axloqiy me'yorlar ezgulik va yovuzlik, burch, adolat va shu kabi axloqiy ideallar ko'rinishidagi ma'naviy asoslarga tayanadi. Qonun normalaridan farqli ravishda insonlarning axloq qoidalari va talablariga amal qilishlarini ta'minlashda faqatgina ma'naviy-ruhiy shakldagi choralar (masalan, jamoatchilik fikri, vijdon oldida javobgarlik, ota-ona oldidagi burch) qo'llaniladi²⁷.

Axloq va dinga berilgan yuqoridagi ta'riflar ularning eng umumiy xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Lekin ushbu tushunchalarning asl mazmun-mohiyati va strukturaviy tuzilishi ancha keng va mukammaldir.

Din va axloq o'rtasidagi o'zaro munosabatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ushbu munosabatlarni uch turga bo'lishimiz mumkin:

Avtonomiya. Bunday ko'rinishdagi munosabatda axloq diniy g'oyalarga tayanmaydi, faqatgina aqlga asoslanadi. Bunda holatda axloqiy qadriyatlarining qaysidir dinga tegishli bo'lgan qadriyatlar tizimida aks etishi faqatgina tasodif deb baholanadi.

Geteronomiya. Axloqiy normalar to'g'ridan to'g'ri biror diniy e'tiqodga yoki din tomonidan o'rnatilgan qadriyatlar tizimiga bog'liq bo'ladigan bo'lsa, bunday ko'rinishdagi munosabatda axloq geteronomik ya'ni qoidalari tashqi manbaga tayanuvchi deb hisoblanadi. Geteronomiya axloq va din o'rtasidagi munosabatda nisbatan mo'tadil yondashuv hisoblanadi.

Teonomiya. Bunda axloq dinga bevosita bo'ysunadi. Boshqacha qilib aytganda esa axloqiy normalarning paydo bo'lishi va ta'minlanishida diniy e'tiqod, diniy bilim, dinning asosiy mohiyatini tashkil etuvchi ilohiy borliq (Xudo, Alloh, Tangri) ilhom manbasi, asosiy tayanch hisoblanadi²⁸. Globallashuv davrida millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va barqarorlik muhitini ta'minlash jahondagi barcha davlatlar qatorida O'zbekistonda ham eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Din va uning axloqiylikni ta'minlashdagi o'rni, axloq va din o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikning ma'naviy barkamol avlod tarbiyasi, ijtimoiy tartib va barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati beqiyos. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytganda "Dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi"²⁹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021yil 17avgus
2. Dinshunoslik (darslik) –T., "Mehnat", 2004., 11 bet
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2001 yil. 271 bet.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati 2009. 173 bet

²⁷ Большой энциклопедический словарь / 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Большая российская энциклопедия; СПб.: Норинт, 1997. Ст. 755

²⁸ Томпсон М. Философия религии / Пер. с англ. Ю. Бушуевой. – М.: ФАИРПРЕСС, 2001. ст 145

²⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2013. 96 bet



5. Большой энциклопедический словарь,1997. Ст. 1009
6. Falsafa: ensiklopedik lug‘at “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2010. 35 bet.
7. Большой энциклопедический словарь / 2-е изд., перераб. и доп.
8. Большая российская энциклопедия; Норинт, 1997. Ст.755
9. Томпсон М. Философия религии / Пер. с англ. Ю. Бушуевой. – ФАИРПРЕСС, 2001.Ст 145
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2013. 96 bet
11. <https://lex.uz/docs/3026246>